

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
SHARQ FILOLOGIYASI VA TARIX FAKULTETI
XORIJIY MAMLAKATLAR TARIXI KAFEDRASI

REFERAT

MAVZU: ***Misr Usmoniylar imperiyasi
tarkibida (1517-1805y)***

Bajardi: Raxmanov Z.

Toshkent 2010

Mundarija:

Kirish.....2

Asosiy qism

1. Turklar bosqiniga qadar Misr tarixi.....5

2. Misrni Usmonlilar tomonidan zabt etilishi.....10

3. Misr Usmonli turklar hukmronligi ostida. (XVI – XVIII asrlarda).....14

4. Misr XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida.....19

5. Misr XIX asr boshida.....25

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Bizning Vatanimiz mustaqillika erishgandan so'ng, dunyoning 200 ga yaqin mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatildi. Ularni tarixini, tilini, urf – odatlarini bilish hammamiz uchun, ayniqsa biz sharqshunos tarixchilar uchun katta ahamiyatga ega. Mamlakatimiz Prezidenti I. A. Karimov o'zlarining qator asarlarida yoshlarga murojaat qilib o'lkamiz va jahon tarixini qunt bilan o'rganishga undaydilar. Xususan yurtimizni birinchilardan bo'lib tan olgan Misr tarixini bilish, o'rganish biz tarixchilarni yanada chuqurroq bilim olishimizni talab qiladi. Darhaqiqat "Tarix - xalq ma'naviyatining asosidir". O'tmishini bilmasdan porloq kelajak qurib bo'lmaydi.

Inson davlatchilik tarixining o'chog'i bo'lmish Misr XVI asrga kelib Usmonlilar davlati tarkibiga qo'shib olingani hammaga ma'lum. Misr hududiga qadaimdan qo'shini bo'lgan xalaqlar intilganlar, chunki Misr ikki qit'ani, yani Afrika va Osiyoni bog'lab turuvchi, Yevropaliklar uchun Hindistonga olib boradigan asosiy tranzit yo'li hisoblangan. Biz o'rganayotgan davrimizda Misr Arab Islom xalifaligining markazidan Turk Usmonlilar imperiyasining hududiga aylanib qolgani hammaga ma'lum. Bundan tashqari Misr keyinroq G'arb mamlakatlari ta'siri ostiga tushib qolganini ham mana shu ilmiy ishimizda ko'rib chiqamiz. Misrda mana shu davrda bazan yuksalishlar, bazan esan orqaga ketishlar ko'zga tashlanadi. Misrda bu davrda ham siyosiy, ham iqtisodiy o'zgarishlarga guvoh bo'lasiz. Misr biz ko'rib chiqayotgan davrda rasman Usmonlilar imperiyasi tarkibida bo'lsa ham u ba'zi paytlarda mustaqillikka erishganini ko'rishimiz mumkin.

Mana shu XVI – XIX asrlardagi Misr tarixini ochib berishda maqsad va vazifalarni bilish katta ahamiyatga ega.

Bu kurs ishining maqsadi, o'sha davr tarixi, aholining ijtimoiy – iqtisodiy ahvoli, davlat boshqaruvi, davlat qurolli kuchlari, iqtisodiyot, davlatda o'tkazilgan isloxlardan xabardor bo'lish va mana shu olib borilgan ishlarni ham ijobiy ham salbiy tomonlarini ko'rsatib berish, o'sha davrda hukmronlik qilgan sulola, tabaqa, urug' va boshqalar haqida tushunishga yordam berish. Bu yuqorida sanab

o'tilganlarni birma – bir o'rganar ekanmiz, shu maqsad yo'lida olib borgan izlanishlarimiz o'z – o'zidan ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Vazifasiga keladigan bo'lsak, kurs ishining maqsadidan kelib chiqqan holda aytib o'tsak, bu davrda isloxotlarni amalga oshirishda olib borilgan harakatlar, turklar zulmining kuchayishi, mahalliy aholi tomonidan ham mamlyuklarga, ham turklarga norozilik kayfiyati uy'gonishi va keyinchalik bu holatdan sillasi qurigan xalqning Yevroaliklardan najot istab fransuzlar aldoviga uchishi, hamda inglizlar tomonidan tazyiqning kuchayishini ochib berish asosiy vazifa hisoblanadi.

Bu davr tarixini o'rganishda asosan rus va g'arb olimlarining asarlariga ko'proq murojaat qilindi. Sabab bu davr tarixini o'rganishda ular ko'proq ma'lumot qoldirganlar. Buning asosiy sababi esa bu olimlarning ba'zilar mana shu yerlarda o'z ilmiy faoliyatlarini amalga oshirganlar. Lekin shuni aytib o'tish kerakki bizning olimlarimiz ham bu davrni qisman bo'lsada o'rganganlar. Biz bu kurs ishimizda o'sha davr tarixini o'rganish maqsad qilib, mana shu ish orqali qisman bo'lsada Misr tarixini yoritib berishga harakat qildik.

Bu davr haqida “Новая история Азии и Африки”, “История востока”, XVI – XIXvv., Л. Л. Василев, “История ислама” А. Мюллер, “Османская империя: могущество и гибель” Петросян Ю. А. asarlarida mana shu davr haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari barcha arabshunos tarixchilar ham Misr tarixini qisman bo'lsada o'rganib chiqqanlar va xali xamon o'rganishda davom etmoqdalar.

Bu davr haqida o'zbek tilidagi adabiyotlarni kamligini hisobga oladiga bo'lsak, bu kurs ishidan kelajakda o'quv jarayonida foydalanish, yoki bu ishni yanada boyitish orqali keljakda ilmiy ishlar olib borish imkoniyatini vujudga keltiradi va bu ishlarda yaqindan yordam berishi mumkin.

Bu davr Misr tarixini o'rganar ekanmiz bizning ko'z o'ngimizda qadimdan kuchli bo'lib kelgan Misr, nafaqat qadimdan balki shu davrgacha ham Islom olamining markaziga aylanib bo'lgan Misr qanday qilib bunday holatga tushib qolganini bilichga qizishimiz ortadi.

Bu holatlar barchasi Misrni inglizlar nazorati ostiga tushirib qo'yadi. Buning asosiy sababchilari sifatida bu yerda hukmronlik qilayotgan yuqori tabaqa vakillarini aytib o'tsak bo'ladi.

Misr Usmoniylar imperiyasi tarkibida.(1517-1805 y.)

Turklar bosqiniga qadar Misr tarixi.

Tarixdan ma'lumki Misr davlatchilikka asos solingan ilk mamlakatdir. Misrda bundan 5000 yil avval Misrda davlatchilikka asos solingan. Misr o'z tarixi davomida juda ko'p urishlar, sulolar almashinuvi, davlatlar bosqini va qo'zg'alonlarga guvoh bo'lgan.

Mana shu gapimizning isboti sifatida Misrning bizning mavzuimizgacha bo'lgan davrini qisqacha ko'rib chiqsak.

Misrning qulay geografik joylashuvi va boy tabiiy sharoiti qadimdan boshlab kishilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Mana shu holatlar keyinchalik biz ko'rib chiqadigan mavzuda, yani "Misr Usmonlilar imperiyasi tarkibida" mavzusida ham o'z aksini topadi. Faqatgina bu davrga kelib Misrga g'arb davlatlari qiziqqa boshlaydilar.

Misrda ilk odamlar arxelog D.D. Klarkning ma'lumotiga ko'ra 80 – 90 ming yil oldin kelib joylashganlar.¹ Olimlar bundan tashqari 25 – 30 ming yil avval Fayum voxasida ham odamlar yashaganliklarini aniqlashgan. Bu voxadan o'sha davrga tegishli juda ko'plab ashyoviy dalillar topilgan. Milloddan avvalgi VI – V mingyilliklarda aholi soni ortib, ilk qishloqlar paydo bo'la boshlagan.

Misrning tub aholisi qorachadan kelgan, xushqomat va kamsoqol bo'lishgan. Bundan tahqari Misrda aholi sonini ortishida janubdan kelgan – nubiyaliklar, Markaziy Afrikadan kelgan – liliputlar, g'arbdan kelgan – liviyaliklar, shimoli – sharqdan kelgan – giksoslar, habashlar, ossurlar, forslar, yunonlar, makedonlar va rimliklarning xissasi katta. Bu xalqlar ham keyinchalik misrlilar bilan aralashib ketib, misrliklarga aylanganlar. Ammo bir narsani aytib o'tish kerakki ushbu xalaqlarning hammasi bir vaqtning o'zida kirib kelmagan, bular birnecha yillar ichida Misrnin egallaganlar, bazilari esa Misrga ko'xhib kelib shu yerni o'zlarining asosiy makonlariga qylantirganlar.

¹ Qadimgi dunyo tarixi I – qism 1975 y. "O'qituvchi" nashriyoti.

Yuqorida Misrda odamlar qachondan boshlab paydo bo'la boshlaganliklari haqida aytib o'tdim, endi esa Misrdagi ilk davlatlarga urg'u bersak.

Miloddan avvalgi IV – ming yillikda Nil qirg'oqlari atrofida ilk shahar – davlatlar paydo bo'la boshlaydilar. Bu shahar davlatlar “nom” lar deb atlaib ularning soni 42 ta bo'lgan. Xar tarafga yoyilib ketgan mamlakatlar ikkita davlatda birlashadilar: Yuqori Misr (Janubiy podsholik) va Quyi Misr (Shimoliy podsholik). Taxminan ming yil davomida bu ikki davlat – janub shimol ustidan g'laba qozongunga qadar bir – birlari bilan dushman bo'lganlar.

Misr tarixini ikkiga bo'lib o'rgansak bo'ladi: birinchi davr ilk davlatchilikka asos solingan davrdan arablar iste'losigacha bo'lgan davr, ikkinchi davr Misrda Islom dini kirib kelishi va hozirgacha bo'lgan davr.

Misr tarixida qadimgi podsholik davri beshta davrni o'z ichiga oladi, bular:

1. Ilk podsholik davri – miloddan avvalgi 3100 – 2800 yillarda
2. Qadimgi podsholik davri – miloddan avvalgi 2800 – 2250 yillarda
3. O'rta podsholik davri – miloddan avvalgi 2040 – 1750 yillarda
4. Yangi podsholik davri – miloddan avvalgi 1584 – 1085 yillarda
5. So'ngi podsholik davri – miloddan avvalgi 1085 yildan Misr Vizantiya ta'siriga tushib qolgunga qadar (milodiy 395 yil).²

Bu podsholiklarda qanday voqealar sodir bo'lganini ko'rib chiqsak.

Ilk podsholik davri ikki davlatni, yani yuqori va quyi Misrni birlashtirilishi bilan ahamiyatga molik. Yuqori Misr poshohi *Narmer* Quyi Misrga bostirib kirgan, mana shu voqeadan boshlab Misrda yagona davlat tuzish uchun kurashlar boshlanib ketgan. Miloddan avallgi III mingyillikda Yuqori Misr shohi *Mina* (Menes) ikki davlatni yagona bayroq ostida birlashtiradi. Mina bundan tahqari Memfis shahrini

² Qadimgi dunyo tarixi I – qism 1975 y. “O'qituvchi” nashriyoti.

qurdirib uni poytaxtga aylantirgan va birinchi sulolaga asos solgan.³ Ilk podsholik davrida ikkita sulola vakillari hukmronlik qilganlar. Ikkinchi sulola davridan boshlab Misr podshohlari *fir'avnlari* deb atala boshlaganlar.

Qdimgi podsholik davrida esi Misrda 3 – 6 sulola vakillari hukmronlik qilganlar. Bu davrda podshohlar asosan davlatni kengaytirish, mustahkamlash va markazlashtirish uchun ko'plab harakatlar olib borganlar. Ayniqsa 4 sulola vakillari Nubiya, Falastin, Liviya va Sinayga juda ko'plab yurishlar qilganlar. Bu davr yana shunisi bilan mashhurki, miloddan avvalgi 2715 – 2613 yillarda 3 sulola vakillari hukmronligi davrida dunyoga mashhur Misr piramidalar quriladi. Misrda qurilgan ilk piramida bu fir'avn Joser piramidasidir. Eng katta piramida esa fir'avn Hufu piramidasidir. Bu piramidaning balandligi 150 metr bo'lgan.

Bu davr oxirlariga kelib Misrda bo'linish kuztiladi. Misr mayda davlatchilarga bo'linib ketadi va mana shu mayda davlatlar hukmronlik uchun bir – birlari bilan qonli urushlar olib boradi. Bunga esa piramidalar qurilishi sabab bo'ladi, chunki bu qurilishlar juda ko'plab mablag' talab qilar edi. Mana shu tarqoqlik davrida Misrda 7 – 10 sulola vakillari hukmronlik qilganlar. Bu davr o'z ichiga 2192 – 2040 yillarni oladi.

2040 yilga kelib Fiva hukmdori Mentuxatep Gerakleopol podshohlariga qarshi kurashib yuqori va quyi podshohliklarni birlashtiradi, hamda Markazlashgan Misr davlatiga ikkinchi marotaba asos soladi. Bu davrga kelib Fiva Misr poytaxtiga aylanadi. O'rta podsholik davrida 11 – 13 sulolalar hukmronlik qilganlar. Bu davrda ham fir'avnlari iste'lochilik yurishlarini amalga oshirganlar. Ular Nubiya, Sinay, Finikiya, Falastin, hattoki Frot daryosi sohillarigacha borganlar. Lekin bu davr ham osoyishtalik bilan o'tmagan miloddan avvalgi XIX asrdan boshlab o'rta podsholik tushkunlikka yuz tutadi. 13 sulola davridan boshlab o'zaro urushlar kuchayib ketgan. Bundan sillasi qurigan jabrdida xalq 1750 yilli qo'zg'olon ko'targan.

Bu davrga kelib Misrni zaiflashib qolganidan foydalanib Giksoslar kirib keladilar. Ular avval Misrga tinch yo'l bilan ko'chib kiradilar, keyinchalik ular Misrda Avoaris shahriga asos soladilar. Misrga ilk bor otlarni Giksoslar olib

³”История востока I 1998г. Москва Высшая школа

kirganlar. Giksoslar Misrda miloddan avvalgi 1710 – 1580 yillarda hukmronlik qilganlar. Giksoslar 15 – 16 sulolaga mansub edilar.

XVI asr boshlariga kelib Misrda ozodlik harakatlari kuchayadi. Bu harakatlarga 17 sulola vakillari Fiva hukmdorlari boshchilik qilganlar. Giksoslarga qarshilik harakatni Kamesu boshlaydi. Kamesudan keyin harakatga ukasi Yaxmos I boshchilik qilgan. U giksoslarni mamlakatdan butunlay chiqarib yuboradi.

Giksoslar quvib chiqarilgach Misrda yangi podsholik davri boshlangan. Bu davrda 18 – 20 sulola vakillari hukmronlik qilgan. Bu davrda Misr hududi ancha kengayib janubda Nubiyaga, shimol va shimoli – sharqda O'rtayer dengizining sharqiy sohillarigacha cho'zildi. Bu davrda Qadimgi Misr tarixidagi eng ko'p iste'lochilik yurishlari amalga oshirilgan. Eng ko'zga ko'ringan iste'lochiolar bular Tutmos I va Tumos III.

Miloddan avvalgi XIV asr o'rtalariga kelib ahvol yomonlashadi. 1320 – 1085 yillarda hukmronlik qilgan XIX sulola vakillari bu holatga barham beradilar. Bu sulola asoschisi – Ramzes I.⁴

1085 yili Ramzes XI vafotidan so'ng 20 sulola vakillari tugab, Misr davlati ikkiga bo'linib ketgan. Janubiy Misr Fiva hokimlari qo'lga, shimoliy Misr 21 sulola asoschi Tanis hukmdori Smendes qo'lga o'tgan. Shu voqea bilan Yangi podsholik davri tugaydi.

Miloddan avvalgi XI asr boshlarida Yangi podsholik tugatilgandan so'ng so'ngi podsholik davri boshlanadi. Bu davrda Misr tashqi davlatlar ta'siriga tushib qoladi. Bu davr Liviya – Sais davri deb ham ataladi. Chunki bu davrda yollanma qo'shinda liviyaliklar hukmronlik qilib, asta – sekin hokimiyatni egallaydilar.

Bundan tashqari Misr miloddan avvalgi VIII – VII asrlarda Efiopiyaliklar, miloddan avvalgi 671 – 655 yillarda Ossurlar, miloddan avvalgi 525 – 404 yillarda forslar, miloddan avvalgi 332 yilda Aleksandr Makedonskiy, miloddan avvalgi 30 yilda Rim imperiyasi tarkibida bo'ladi. Milodiy 395 yilda Misr Vizantiya ta'siriga tushib qoladi, shu bilan qadimgi Misr tarixi o'z nihoyasiga yetadi.

⁴ Qadimgi dunyo tarixi I – qism 1975 y. "O'qituvchi" nashriyoti.

Bundan keyin davr haqida qisqacha aytib o'tadigan bo'lsak, Misrni 640 yili arab harbiy qo'mondoni Amr ibn al – As egallaydi. Shu davrdan boshlab Misrda Islom dini keng yoyila boshlaydi va Misr Arab xalifaligi tarkibiga qo'shiladi⁵. Kelgusida Misrda – Ummaviylar, Abbosiylar, Ixshidlar, Fotimiylar, Ayubiylar, 1250 yildan boshlab mamlyuklar hukmronlik qilishadi. Faqatgina bu davrlarda Misrning avvalgi poytaxtlari o'z ahamiyatini yo'qotib 969 yilda asos solingan Qohira shahri markazga aylanadi. Mana shu mamlyuklar hukmronligini oxiri va Misrni usmonlilar tomonidan zabt etilishi bilan bizning mavzuimiz boshlanadi.

⁵ Ольга Бибилова. Аббасидов династия

Misrni Usmonlilar tomonidan zabt etilishi.

XVI asrda arab davlatlarining ko'pchiligi turklar tomonidan zabt etilib, Usmonlilar imperiyasi tarkibiga qo'shib olingan edi. Ulardan birinchilardan bo'lib o'z mustaqilligini, siyosiy hokimiyatini **Misr** yo'qotdi. Bu davrda Misr mamlyuklar hukmronligi ostida edi.

Mamlyuklar ("erkin bo'lmaganlar", "qullar") – asir tushganlar va qul qilib sotib olinib, sulton armiyasining asosiy qismini tashkil etgan asosiy kuch hisoblangan. Mamlyuklar o'rta asrlarda maxsus harbiy harakatlar uchun yetishtirilgan oq tanli qullar.⁶ Mamlyuk qo'shinlari otryadlari Ayubiylar sulolasi asoschisi – Saloxiddin davridayoq mavjud bo'lgan. 1244 yili sulton Baybars boshchiligida mamlyuk qo'shinlari salbchilarga qarshi bir necha harakatlar olib borib, Suriya va Falastindagi bir nechta shaharlarni egallaydi. 1260 yilda esa mamlyuklar Ayn – Jaludagi jangda Falastinda mo'g'illarni mag'lubiyatga uchratadilar.

1250 yili mamlyuklar Ayubiylarni taxtdan ag'darib sultonlar sulololasiga asos soladilar va Misrni 1516 – 1517 yilga qadar yani usmonlilar imperiyasi egallagunga qadar boshqaradilar. Ularning asosini turkiylar tashkil qilgan. Ular o'z qudratiga ega bo'lgan harbiy – feodal tabaqa edi. Ular keyinchalik kuchayib borganlari sari mustaqil kuchga ega bo'lib hokimiyat tepasiga ham keldilar. Mamlyuk otryadlari boshliqlari *beylar* deb atalganlar, ularni ustidan *sulton* turgan, sulton Qohiradan turib davlatni boshqargan. Mamlyuk sulton lari yoki beylarning qonuniy valiahdlari bo'lmagan, shuning uchun ham ularning farzandlari davlat boshlig'i bo'la olmaganlar. Davlat boshlig'i etib eng iqtidorli qo'shin qo'mondonlari tayinlanganlar. Mamlyuklar mamlakatida hukumat otadan bolaga emas, harbiy qo'mondonlarga o'tgan. Mamlyuklar sulolasi uzoqqa cho'zilmagan, sabab boshqa mamlyuk sultoni boshqacha siyosat olib borgan. Ma'lumotlarga ko'ra ularning soni 9 mingdan 12 mingacha (ba'zi malumotlarda 24 ming nafar) bo'lgan.⁷ Mamlyuklarning safi o'sha paytlarda ham egallangan yerlardan olib kelingan qullar hisobiga to'lib turar edi. Olib

⁶ wikipedia.org va biblioteka.ru

⁷ “Новая история стран зарубежной Азии и Африки” 1971г.

kelinganlar asosan Kavkazdan – cherkas, gruzin, abxaz millatiga mansub insonlar bo'lganlar.

Mamlyuklar davri o'z navbatida ikkiga bo'linadi “Turk mamlyuklar” – baxriylar (1250 – 1382 y.) va “Cherkes mamlyuklar” – burjiylar (1382 – 1517 y).⁸ Bu haqida turk olimi Zakoi Ko'nraba quydagi so'zlarni aytib o'tgan: “Turk mamlyukalari saltanatlarini qurmoqlik uchun cherkeslardan muhofiz (qo'riqchi) askarlar olgan edilar. Mana shu muhofiz cherkes askarlari Turk Mamlyuk saltanatini yiqitdi. Cherkesa mamlyuk idorasini qurdi. Usmonoilar bilan Cherkes mamlukalarining orasi Fotih zamonida Xijoz suv yo'larining tamiri ishidan ochildi. Boyazid Ikkinchi zamonida qonli muhorabalarga sabab bo'ldi. U payt Misr sultonlari Islom dunyosiga ham hokim edi. Mamlyuklar orasida Yevropalik ko'ngillilar ham bo'lganlar. Misrlik arablar hech qachon mamlyuk bo'la olmaganlar”.⁹ Mamlyuklarning eng ko'zga ko'ringan sultonlari – Oybek, Baybars, Kalaun, Barsbey, Gurilar bo'lganlar.

1382 yili amir Barkuk (1382 – 1399) hukumatni egallab, yuqori lavozimlarni cherkeslarga bera boshlaydi, shu tariqa 1382 yildan 1517 yilga qadar Misrni cherkes mamlyuklari boshqaradilar.

Mamlyuklarning hukmronligi dehqonlar va baddaviylarni qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda, asosan sug'oriladigan yerlarda ularni mehnatidan ayovsiz foydalanishlarida bilinadi. Ularning doimiy zulm o'tkazishlari qishloq ho'jaligi mahsulotlarini kamayib ketishiga va qishloq joylarda aholini kamayib ketishiga, qishloqlarda qolgan aholini ularning hukmronligiga qarshiligini kuchaytirib yubordi. Mana shu sabablar Misrni turklar tomonidan bosib olinishini tezlashtirib yubordi.¹⁰

“Yovuz Sulton Salim Marash ustiga yurish qildi. Bu yer Zulqodir o'g'illarining qo'lida edi. Misrliklar bilan Usmonlilar o'rtasida dushmanlik Zulqodir o'g'illari tufayli chiqayotgan edi. Yovuz Salim Zulqodir bekligini bekor qildi. Usmonli tuproqlariga qo'shdi. Shu zayil Ona do'lida milliy birlik ohiriga yetkazildi (m1515). Biroq Cherkes mamluklaridan Kansu Gavri bundan mamnun

⁸ yestravel.ru/istoriya/egipet/islamskiyegipet

⁹Закои Кўнрапа. Усмонлилар халифалиги.

¹⁰ Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

bo'lmadi. Avvalgiday Zulqodir bekligida hutba o'qilioshini istadi. Salim Birinchi shu qisqa javobni berdi: „Cherkes mard bo'lsa, hutbasini Misrda yashatsin!“ dedi.”¹¹

U paytlar Islom olamida pul bostirish hutba o'qitish istiqlool alomati hisoblanardi. Juma va hayit namozlarida xatiblar hutba o'qirkan, halifalardan keyin hukumdorlarning ismlarini ham tilga olishardi. U davrning hukmron fikriga ko'ra, davlat boshliqlari bu hutbalarga katta ahamiyat berar edi.¹²

Urushning boshida mamlyuklar yetarlicha qarshilik ko'rsata oldilar, lekin bularning hech biri mamlyuklarni turklar bosqinidan saqlab qola olmadi. 1516 yil 24 avgustda Suriya shimolidagi Merj – Dabikda eng katta to'qnashuv bo'lib o'tadi. 1516 yili sulton Kansu Guriy Shimoliy Suriyada Salim I qo'shinlari bilan to'qnashuvda halok bo'ladi, uning o'rniga sulton etib Ashraf To'manboy tayinlanadi. Uning buyrug'i bilan cho'l chegara hududlarida harbiy istehkom qurdiradi, lekin uni turklar chetlab o'tishadi. Huddi shu 1516 yilda turklar G'azoni egallab Nilga tomon yo'l ochadilar. To'manboy turklarni Qohira ostonasida to'xtatib qolish maqsadida venetsiyaliklardan 80 zambarak oladi, lekin bu zambaraklardan mamlyuklar foydalanishni bilmas edilar.¹³

1517 yil boshida Salim I boshchiligidagi turk armiyasi qo'shinlari Misr poytaxti Qohiraga hech qanday qarshiliklarsiz kirib kelib, u yerni talay boshladilar. Lekin, 22 yanvarda Qohira devori yonida Misr taqdirini keyingi bir necha asrga xal qilib beruvchi asosiy jang bo'lib o'tadi va bu jangda turklarni qo'li ustun kelib Misrni egallaydilar. Shu davrdan boshlab Misr Usmonlilar imperiyasi tarkibiuga kiritiladi. “Salim I mamlyuk qo'shinlarini to'rt qonli urushda (Halab oldida Marjidabik, Falastinda Gazza, Qoxira yonida Rizoniya va Qoxira ichida) tor-mor etdi. Pirovardida, yo'rt zarba bilan to'rt qitani (Suriya, Falastin, Xijoz va Misrni) Usmonli Turkiyasiga qo'shdi. Sulton Salim bir necha yilardan beri Turk mamlyuklari bilan Cherkes mamlyuklari tomonidan boshqarilgan Misr sultonligiga barham berdi”.¹⁴ Mamlyuklar To'manboy boshchiligidagi Yuqori Misr tomon qochadilar va u

¹¹ Закон Кўнрапа. Усмонлилар халифалиги

¹² Ўша ерда

¹³ Петросян Ю.А. Османская империя: могущество и гибель. Исторические очерки; М.: Изд-во Эксмо, 2003 worldhistory.ru

¹⁴ Закон Кўнрапа. Усмонлилар халифалиги

yerda turk qo'shinlariga duch kelib batamom yo'q qilinib yuboriladilar. To'manboy baddaviylar tomonidan Salim Iga topshiriladi, huddi o'sha yili u Qohirada osib o'ldiriladi. Mamlyuklar batamom 1811 – 1812 yillarda Muhammad Ali tomonidan tugatiladilar.

Misr eggalanishi musulmonlar uchun muqaddas bo'lgan mamlakat Xijozda ham turklar hukmronligi o'rnatilganini bildiradi. Xijozda musulmonlarning ikki muqaddas shahri Makka va Madina joylashgan, lekin o'sha paytlarda musulmon dunyosi markazi Misrda edi. Misr Abbosiy halifalar tomonidan boshqarilar edi. Shu sababdan ham Xijoz bilan Misr bir davlat edi.

Salim I Marjidabik jangidan keyin Halabaga kirdi. “Ilk juma namozida xatib podshoh nomiga hutba o'qirkan,(Makka va Madinani nazarda tutib): “Sohibul Haramaynish-Sharifayn” ya'ni “Ikki sharaflı Haram egasi” dedi. Bundan Sulton Salim juda sevinib ketdi va himatli kaftanini (bezkli ust kiymini) darhol egnidan yechib, hatibga sovg'a qildi. Faqat: „Men Harami Muhtaramayninig sohibi emas, hodimiman”, deya bu hutbadagi bu jumlaning „Xodimul Haramaynish-Sharfayn” shaklda o'zgartirilishini buyurdi. Yovuz Sulton Salim Misrdaligida Makka sharifi Muxammad Abu Barakat o'g'li orqali Ka'baning kalitlarini va “Omonat muboraka”ni Sulton Salimga yubordi. Misrni egallagan yili Salim I Ka'ba kalitini qo'lga kiritadi va “Ikki muqaddas shahar hizmatchisi” unvonini oladi.”¹⁵

¹⁵ Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

Misr turklar hukmronligi ostida

Misr Abbosiylarining so'ngi yettinchi halifasi Muttavakil III Alalloh Misr fotihi Yovuz Sulton Salim I bilan Istanbulga ketdi. Ayo Sofiya Jome'ida muhtasham majlis o'tkaziladi. Bu majlisda Arab va Turk ulamolari ishtirok etadilar. Muttavakil III minbarda xutba o'qib Sulton Salimning salohiyatini tushuntiradi va ustidagi kiyimini yechib Sulton Salimga kiydirib, xalifalikdan o'z xohishi bilan ketganini e'lon qiladi. Ulamolar Sulton Salimni xalifa etib saylaydilar Shahomat qilichini unga topshiradilar. Usmonli sultonlarda qilich taqish (taqlidi sayf) marosimi shundan boshlangan. Shu paytgacha xalifalar arab sulolalaridan tayinlanar edi, endi arab xalifaligi tugab Turk xalifaligi boshlandi. Sulton Salim I xalifalikni bir shaxsda va bir sulolada qayta birlashtirdi.¹⁶

Usmonli podshohlarning ikki vakili bo'lgan: biri – Sadri A'zam, ikkinchisi – Shayxulislom. Sadri A'zam (Boshvakil) davlatishlarini qilgan, shayxulislom podshohlarning xalifalik sifatini namoyish etar, musulmonlarning din va huquq ishlarini hal etar edi. 1517 yildan boshlab Misr Abbosiy xalifaligi tugatilib to 1924 yil 3 martga qadar Islom xalifaligi Usmonlilar podshohlari qo'lida qoldi.¹⁷

Turklarni Misrni bosib olishi davlat boshqaruv tizimida jiddiy o'zgarishlarga olib kelmadi. Xalq ikki tomondan zulmga uchradi – bir tomondan mamlyuklar, ikkinchi tomondan Usmonli turk feodallari. Mamlyuk beylari va diniy ulamolari hali xamon oliy toifa vakillari hisoblanar edilar. Turklar ham ularni tan beylar qolida juda ko'plab mol – mulk qoldirgan edilar. Xattoki Salim I Misrni bosib olgan davrda 24 ta beyni o'z lavozimida qoldirgan.¹⁸ Misrni sulton nomidan *posho* boshqargan. Posho 1 yilga tayinlangan, lekin bu muddat 2 – 3 yilga cho'zilgan. Posho davlatni Qohiradan turib boshqargan. Posho davlat ishlarini vazirlardan tashkil topgan *devan* orqali hal qilgan. Posho qaramog'ida *yanichar* va *mamlyuk* gvardiyalari bo'lgan. Bu qo'shinlar poshoning asosiy kuchlari hisoblangan. Qo'shin qo'mondonlariga posho mamlyuk

¹⁶ Фильштинский И.М. История арабов и халифата (750 – 1517 гг.) Москва. Формика – С. 2001г

¹⁷ Закон Кўнрапа. Усмонлилар халифалиги

¹⁸ “Новая история стран зарубежной Азии и Африки” 1971г.

sultoniga tegishli bo'lgan yerlarni bo'lib berib ularni yuqori lavozimlarga tayinlagan, bu bilan ular Misrda hukmronliklarini kuchaytira borganlar.¹⁹

Misr turklar tomonidan egallanganiga qaramasdan eski feodal tizimni saqlanib qolishi, posho hukumatini Qohira va uning atrofidagi yerlar bilan chegaralanishiga olib keldi. Posho esa Misr feodallari va turk sultoni o'rtasida vositachiga aylanib qoldi. Uning asosiy vazifasi sultonga to'lanadigan bojni yetkazib berish bo'lib qoldi.²⁰

Yuqorida biz yanicharlarni asosiy kuch deb aytib o'tdik, lekin ular o'zi aslida kimlar ekanligida ta'rif beradigan bo'lsak, *Yanicharlar* – sulton Murod I davrida 12 – 16 yoshli nasroniy bo'lgan (alban, arman, bosniyalik, bulg'or, grek, gruzin, serb, rus) bolalarni olib kelinib, musulmon urf – odatlari bo'yicha tarbiylanib, keyinchalik maxsus qo'shinni asosini tashkil qilganlar. Ularning otasi ham onasi sulton hisoblangan. Yanicharlikka tanlov (devshirma – qon solig'i) musulmon bo'lmagan aholi uchun eng og'ir masuliyat bo'lgan, chunki ular eng baquvvat aqlli bolalarni olishgan. Maxsus qo'shinga jismonan baquvat, harbiy jang san'atiga ega bo'lganlar olingan, aqlan tetik bo'lganlari davlat boshqaruv tizimida hizmat qilganlar. Yanicharlikka aynan nasroniylar olinganlar, yaxudiylar esa devshirmadan ozod



qilinganlar. Keyinchalik boshnyaklar va alban – musulmonlar bu huquqqa ega bo'lganlar.²¹ Ular qanday ko'rinishga ega bo'lganliklarini mana bu rasmdan ko'rishimiz mumkin. Devshirmadan bundan tashqari Istambulliklar, turk tilini bilganlar, jismonan va aqlan zaif bo'lganlar, bundan tashqari oilalilar ozod qilinganlar. Bu holat turklar arab

davlatlarini egallagandan keyin ham mavjud bo'lgan, yani arablardan ham yanicharlikka olinmagan.

¹⁹wikipedia.org/janucaru

²⁰ Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

²¹ yestravel.ru/istoriya/egipet/isamskiyegipet

Yanicharlar sultonning qullari hisoblanib, ular moanastir – kazarmalarda yashaganlar, ularga oila qurish 1566 yilga qadar taqiqlangan. Vafot etgan yanicharning mol – mulki qo'shinning mol – mulkiga aylangan. Harbiy jangovar san'atidan tashqari yanicharlar xattotlik, huquq, adabiyot, mantiq va til o'rganganlar. 1683 yilga kelib yanicharlar musulmonlardan ham yig'ila boshlanadi. XVI – asr oxirlari va XVII asr boshlariga kelib yanicharlar oila qura boshlaydilar, xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadilar, savdo va boshqa ishlar bilan ham shug'ullana boshlaydilar. Bu esa yanicharlarni bo'ysinmay qo'yganini bildirar edi. Asta sekinlik bilan yanicharlar davlat to'ntaruvchi kuchga ham aylanib qoladilar. Yanicharlarning asosiy kuchlari 1000 nafardan iborat polklari edi. Yanicharlar davri gullab – yashnagan paytda bunday polklar soni 196 taga yetgan. Mana shu qo'shin yordami bilan turk sultonlari imperiya qurishga erishganlar. Yanicharlarning oliy bosh qo'mondoni “sulton”, qo'shin qo'mondonlari esa “og'a” deb atalganlar.²²

Ular o'zgacha ko'rinishga ega bo'lishgan. Musulmonlardan farqli ravishda soqollari qirilgan bo'lib, mo'ylovlari bo'lgan. Boshqa harbiylardan farqli ravishda oq uzun salla kiyib yurishgan. Ular boshida arbaletdan o'q uzishgan bo'lsalar keyinchalik o'q otar qurollar bilan taminlanganlar. Bundan tashqari, yanicharlar nayza, qilich, qalqon, bolta, xanjar bilan qurollanganlar.²³

Turklar hukmronligining ilk davrlaridayoq aholi va hukumat o'rtasida qarama – qarshiliklar kelib chiqdi. Mamlakatning turli joylarida hukumatga qarshi qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. 1525 yili sulton **Sulaymon Qonuniy** o'zining ishongan odami Ibrohim poshoni Misrga “tartib o'rnatishga” yuboradi. Ibrohim Misrga katta qo'shin bilan yetib kelib u yerda bir nechta ekspeditsiyalar o'tkazadi. Sulaymon I davrida Misrda “Qonun noma” nomli qonunlar kuchga kiradi. Bu qonunda yerdan foydalanish, yerga egalik qilish, hamda shaharlar maqomi, savdo – sotiq va hunarmandchilik qonun – qoidalari ko'rsatib o'tilgan. Bu qonun dehqonlarni yerga nisbatan munosabatini mustahkamladi.²⁴

²² wikipedia.org/janucaru

²³ wikipedia.org/janucaru

²⁴ Новая история Азии и Африки Москва. 2004г

Mamlakatda feodal mulkchilik munosabatlari bo'lishiga qaramasdan barcha ishlov beriladigan va lalmikor yerlar sultonni hisoblanar edi. Rasman esa yerlar – *multazimlaga*, tegishli edi. Ular Misr poshosidan sultonning vakillari sifatida yerlar olar edilar. Multazimlar asosan mamlyuk qo'shin boshliqlari, arab shayxlari, u yoki bu baddaviy qabilasi boshliqlari va ularning qarindoshlari, turk qo'shni qo'mondonlari, mahalliy boylar bo'lar edilar. Yerlar esa bir nechta qishlo va shaharlari bilan bo'lib berilgan. Multazimlar aslida hizmatlari uchun yer olganlar bo'lganlar. Bunday yerlar *itizom* yerlari deb atala boshlagan, ularning egalari multazimlar bo'lganlar. Bu yerlar otadan bolaga o'tadigan bo'lmagan, lekin keyinchalik multazimlarning kuchayib ketishi oqibatida buyerlar xususiylashtirilib, otadan – bolaga o'tadigan bo'lgan.

Multazimning asosiy vazifasi dehqonlardan *miri* (soliq turi) yig'ib uni poshoga topshirish edi.²⁵ Bu ish bilan multazim qo'lidagi mahsus miri yig'uvchilar shug'ullanganlar. XVI asr oxirlariga kelib Usmonlilar imperiyasida yig'ib olinadigan soliqlarining uchdan biri Misrdan olib kelinar edi. Miri pul ko'rinishida yoki mahsulot ko'rinishida olingan. Yillik yig'im Misr aholisidan 600 ming piastri hisobida mahsulotlardan tashqari sultonga topshirilishi belgilab qo'yilgan edi.

Multazim o'z yeridan olingan soliqlar to'liq yoki to'liqmasligiga posho oldida javob bergan. Multazim o'z mol – mulklarini avlodlariga qoldirish uchun juda katta miqdorda boj to'lagan.

Miridan tashqari multazim o'ziga tegishli dehqonlardan boshqa soliq va yig'imlar olgan. O'zlariga tegishli yerlarda multazimlar hech qachon nazorat qilinmaganlari tufayli dehqonlarga uchma – uch qilib yetkazishga ham yetmaydigan miqdorda mahsulotlar qoldirganlar. Qishloqlarda mehnat qiladigan aholi qo'lidagi yerlar asta – sekinlik bilan kichrayib bordi. Agar dehqon vafot etsa uning avlodlari uchun qoladigan yerga avlodlari katta miqdordagi o'lpon to'lashlari kerak edi, lekin bu pulni ular hech qachon to'lay olmas edilar. Soliq va yig'imlardan tashqari dehqonlar ommaviy safarbarlik ishlariga ham jalb etilganlar. Dehqonlarga hom – ashyo yetkazib, ularni mato va pryaja tayorlashga majbur qilar edilar. Ommaviy

²⁵ Новая история Азии и Африки Москва. 2004г

safarbarlik ishlari katta yer egasi bo'lgan multazimlarning asosan chetga sotiladigan mahsulotlar ekilgan yer maydonlarida o'tkazilar edi.²⁶

Turk va Misr feodallarining bunday siyosatlarini qishloq ho'jaligi mahsulotlari yetishtirilishini keskin tushurib yubordi, chunki dehqonlar juda og'ir ahvolga tushib qolgan edilar.

Ishlab chiqarishning tushishi faqat qishloq xo'jaligida emas, balki hunarmandchilikda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Hunarmandchilikda mahsulot ishlab chiqarish keskin tushib ketdi, mahsulot ishlab chiqarish kamaygan sari mahsulotlarning sifati ham yomonlashib bordi. Bularning barcha sabab qilib soliq to'lovlarining oshib ketganligi ko'rsatildi. Bu narsa esa aholi va dehqonlarni bunday katta miqdordagi soliqlarni to'lay olmasligini ko'rsatar edi.

Iqtisodiy tushkunlikni sabablaridan yana biri, Misrning Hindiston va Indoneziya bilan olib borgan savdosini qisqarishi bo'ldi. Bunga sabab Hind okeani va Qizil dengizda portugal savdo va qaroqchilik kemalarining paydo bo'lishi edi. Hindiston va Indoneziyadan olib kelinayotgan mahsulotlar kamayishi bilan Yevropaga tranzit yo'lini bajargan Misrda savdo karvonlarining yo'qolishiga va fedallar daromadlarining kamayishiga, boj to'lovlarining kamayishiga olib keldi. Bundan tashqari yangi dengiz yo'llarini ochilishi Misr savdo yo'llarini yo'qolishiga olib keldi.²⁷

²⁶ В.Ф. Семенов. Урта асрлар тарихи. Укитувчи нашриёти. Т. 1973 й.

²⁷ История Востока. Восток в средние века. М. РАН. 1999г.

Misr XVII – XVIII asrlarda

Usmonlilar imperiyasining sustlasha borishi uning tarkibidagi arab dvlatlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Sulton hukumati Misrda nomigagina saqlanib qolgan edi.

Biz ko'rib chiqayotgan bu davrda Misr iqtisodiyotida bir qancha o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Sanoatning bir qancha turlarida, ayniqsa eksport uchun tovar ishlab chiqariladigan joylarda manufakturaga o'tildi. Bir nechta yirik shaharlarda, hususan Qohira, Maxalla – Kubro, Rozett, Kus, Kin shaharlarida manufakturaga asoslangan korxonalar ochildi.²⁸ U yerlarda paxta matosi, shoiy va boshqa turdagi matolar ishlab chiqarilar edi. Bunday manufakturalarga yuzlab ishchilar jalb etilgan edi. Maxalla – Kubrodagi yirik manufaktura korxonasining 800 – 1000 nafar doimiy ishchisi bo'lgan. Yollanma ishchilardan bundan tashqari yog' – moy va shakar sanoatida ham foydalanganlar. XVIIIoxiralarida Qohirada 15 ming nafar yollanma ishchi va 15 ming nafar hunarmandlar hisobga olingan edi. Ba'zan feodallar shakar ishlab chiqaruvchilar bilan birgalikda o'z yerlarida korxonalar tashkil etganlar. Vaqf yerlari boshliqlari ham ba'zan manufaktura, hunarmandchilik ustaxonalari va rastalar egalari bo'lib qolgan edilar.

Mana shundan ham ko'rib turimizki shaharda axvol yaxshi bo'lgan. Faqat shuni aytib o'tish kerakki manufakturalr vujudga kelgan bo'lsa ham, bu manufakturalarni faqat katta ustalrga ochish huquqi berilgan. Shunday bo'lsa ham shahar aholisi huddi qishloqlardagidek mamlyuklardan ko'plab aziyat chekishgan. Mamlyuklar asosan ularni turli xil soliqlar bilan qiynashgan.

Mana shu XVII – XVIII asr Misr tarixida aloxida ahamiyatga ega bo'lib, bu davrda xokimiyatga mamlyuklarni qaytishi ko'zga tashlanadi.

²⁸ Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

Mamlyuk Ali bey al – Kabir (1760 – 1772 y) beylar va yanicharlar qarshiligini yengib, Misrning yangi amiriga aylanadi. Unga “shayx al – Balad” unvoni beriladi. Ali bey deyarli mamlyuklar saltanatini tiklaydi.²⁹

Manufakturlarda asbob – uskunalar xali sodda bo'lishiga qaramasdan, ishchi kuchini to'g'ri taqsimlangani bu korxonalarda ishlab chiqarish hajmini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshiligini ta'minlab berar edi.

Shunga qaramasdan Misrda kapitalizimni rivojlanishini orqaga tortadigan ba'zi bir sabablar ham bor edi. Birinchi navbatda, manufakturalar va hunarmandchilik ustaxonalari posho va beylarning tazyiqidan ozod bo'lmagan edi. Bundan tashqari, katta miqdordagi soliqlar, yig'imlar, kontributsiya va shunchaki qilinadigan tazyiqlar savdogarlar va hunarmandlarning ishlariga katta ta'sir o'tkazar edi. Kapitulyatsiya natijasida yevropalik savdogarlar va tadbirkorlarni Misr bozorlarini egallashlariga va aksincha misrlik tadbirkor va savdogarlarning katta foyda keltiradigan ishlardan quruq qolishlariga olib keldi. Dehqonlarni ayovsiz qiynoqlarga solinishlari esa ichki bozorni sustlashib qolishini asosiy sababi bo'ldi.

Keyinchalik qishloq xo'jaligida ham kapitalizim asoratlari ko'rina boshladi. Dehqon xo'jaliklari bozorlarga kirib kela boshladilar. Dalalarda ham yollanma ishchilar paydo bo'la boshladilar. Ba'zi bir tumanlarda, asosan Nil daryosi deltasi hududlarida renta – solig'i pul ko'rinishida olinadigan bo'ldi. XVIII asr oxirlariga kelib chet ellik sayyoxning ma'lumotlariga ko'ra Misr bozorlarida yuksalish ko'zga tashlanadi. Dehqonlar bozorlarga: don, sabzavotlar, mol – qo'ylar, yog', pishloq, movut, noxat, sarimsoqqipiyoz va boshqa turli xil maxsulotlar olib kelib sotishgan, bundan tashqari mavsumiy o'simliklar bilan ham savdo qilishgan, o'rniga esa shahardan: ma'to, kiyim – kechak, uy jihozlari, metall buyumlar sotib olganlar. Oldi – sotdi munosabatlari qishloq bozorlarida ham olib borilgan.³⁰

Savdo – sotiq boshqa tumanlar o'rtasida ham rivojlangan. Hozirgi zamon tarixchilarining aytishiga qaraganda XVIII asr o'rtalarida Misrning janubiy qismida yuqori Nilda, Qohira va delta vodiylarida kemalar shakar, don, mato, yog'

²⁹“Новая история стран зарубежной Азии и Африки” 1971г

³⁰ Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

mahsulotlari tashiganliklarini, qaytishda esa sovun, tuz, guruch, mis, temir, ruh kabi mahsulotlar olib kelganliklarini aytib o'tishadi.³¹

Ichki savdo bilan bir qatorda tashqi savdo ham rivojlandi. XVII – XVIII asrlarda Misr eksportining asosini charm, shakar, nashatir, shu bilan bir qatorda guruch va bug'doy tashkil qilar edi. Misr faqatgina Yevropa davlatlari bilangina emas balki qo'shni davlatlar: Suriya, Arabiston, Mag'rib (Jazoir, Tunis, Marokash), Sudan, Darfur bilan ham savdo aloqalarini o'rnatgan edi. Misrdan Hindistondan olib kelinayotgan savdo karvonlarining asosiy qismi o'tar edi. Shuning uchun ham Misr tranzit yo'l hisoblana edi. XVIII asr oxirlarida faqatgina 5 ming nafar savdogar ichki savdo bilan shug'ullanar edi.³² Bu davrda Qohira siyosiy jihatdan obr'sini yo'qotgan bo'lsa ham savdo jihatdan xali ham Yevropaga olib boradigan asosiy tranzit yo'li hisoblanar edi.

Savdoning rivojlanishi dehqonlarni ayovsiz ekspluatatsiya qilinishiga olib kelar edi. Eski soliqlarni to'lab bo'lmaslaridan yangisi qo'shilib turar edi. Multazimlar dehqonlardan Portuga to'lanadigan boj uchun, qo'shin uchun, mahalliy hukumat uchun, qishloq boshqarmalari va diniy muassasalarga, o'z ehtiyojlarini hisobga olmagan holda olinadigan yig'imlar, ba'zan esa hech qanday sababsiz ham soliq va yig'imlar olar edilar. Bundan tashqari hukumqt tomonidan o'rnatilgan soliq va yig'imlar ham bor edi, ularning barchasi milliy urf – odatlarga asoslangan edi. Fransuz tadqiqotchisi **Estev** XVIII birgina qishloqning o'zidan olinadigan soliq 70 dan ortiq ekanligini aytib o'tgan. Milliy urf – odatlarga asoslangan yig'imlar haqida Estev shunday de yozib qoldirgan, <<2 – 3 yilga qilib yig'ib olingan yig'im miqdori yetib ortardi, lekin uni keyingi safar oddiy qoida sifatida talab qilar edilar >>.³³

Dehqonlarni bunday tarzda qiynoqqa solinishi mamlyuklarga qarshi qo'zg'alonga olib keldi. Mamlyuklar urush va siyosiy kelishmovchiliklardan tashqari hamma narsaga rozi bo'lishar edi. XVII asr boshlariga kelib mamlyuklar turk

³¹ “Новая история стран зарубежной Азии и Африки” 1971г

³² “Новая история стран зарубежной Азии и Африки” 1971г

³³ Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

sultonini kuchsizlanib qolganidan foydalanib Misrda hukumatni qaytadan qo'lga kiritadilar. XVIII o'rtalariga kelib esa multazimlarning yarmini mamlyuklar tashkil qilar edilar. XVIII asr o'rtalarida Yuqori Misrda mamlyuklarga qarshi baddaviylar qo'zg'alon ko'taradilar. Qo'zg'alon 1769 yilga kelibgina bostirladi. 1778 yili Tantada mamlyuklarga qarshi dehqonlarning yirik qo'zg'aloni bo'lib o'tadi.

Mamlyuklar portaning vassallari bo'lishlariga qaramasdan ular o'z qollarida hukmronlikni qattiq ushlab turar edilar. Istambuldan kelgan posho hukumati esa nomigagina edi. 1769 yili rus – turk urushi vaqtida mamlyuklar hukmdori Ali – bey Misr mustaqilligini talab qilib Usmonlilar imperiyasiga qo'zg'alon ko'tarib, tez orada <<Misr va ikki dengiz sultoni>> unvonini oladi. Egey dengizidagi rus floti boshlig'i A. Orlov Ali – beyga qisman yordam ko'rsatadi, bu esa turk qo'shinlariga qarshi turib berishga yordam beradi. Ali beyni o'zining leyтинanti Abu al – Daxab turklarga sotadi. Ali – bey bu davrda turklarga oshkora qarshilik ko'rsatgan yakka davlat arbobidir. Qo'zg'alon bostirilib, Ali – bey o'ldirilishiga qaramasdan mamlyuk beylarining hukmronligi sustlashmaydi. Abu al – Daxab garchi Ali – beyni sotsada, lekin ichki siyosatda mustaqillikni saqlab qolgan edi. Lekin o'zlarining kuchli hukmdorlaridan maxrum bo'lgan mamlyuklar biroz obro' – etiborlarini yo'qotib qo'yadilar va mamlakatda Abu al – Daxab vafotidan so'ng (1775y) mamlyuklar o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqadi, Misr 1791 yilga qadar davom etgan fuqarolar urushi domiga tushib qoladi.³⁴

Butun XVIII asr davomida Misrni Istambuldan tayinlangan posholar boshqardilar. Bu davr Misr tarixida “beylik” davri deb ataladi. Bu davrda Misrda turli xil guruhlarining taxt uchun olib borgan urushlari mamlakatda anarxiyani keltirib chiqardi. 1786 yili turklar Misrda tinchlik o'rnatish maqsadida eskadra yubordilar, lekin bu yurish muvaffaqiyatli bo'lmadi.³⁵

Mamlakatda tinchlikni bu urushlarda g'alaba qozongan Murod bey va Ibroxim beylar o'rnatadilar. Shunga qaramasdan iqtisodiyot xali – xamon orqada edi. 1791

³⁴“Новая история стран зарубежной Азии и Африки” 1971г

³⁵ wikipedia.org/NapoleonBonapart

yilda Murod – bey va Ibroxim – beylar taxtni egallashadi va posho ularning qo'lidagi qo'g'irchoqqa aylanib qoladi.³⁶

Mamlyuklarning dushmanliklari Misr iqtisodiyotiga ta'sir etmay qolmadi. Lekin turklar Eron va G'arb bilan urush olib borayotganliklari sababli mamlyuklarni Misrdan haydab chiqarib yubora olmadilar, buning o'rniga ularni yuqori mansablarga tayinladilar. Agar biz masalaga ob'yektiv yondoshadigan bo'lsak Turk sultoni bundan manfaatdor edi, chunki bu davrga kelib yana barcha mol – mulk mamlyuklar qo'lida to'planib qolgan edi.

Misrda bu davrda eski feodal tuzum saqlanib qolaveradi. Davlatdagi barcha yelar rasman sultonning yelari hisoblanar edi. Misrda mulk yerlari – umrbod mulk qilib berilgan, vaqf yerlari – masjid, madrasa yerlari va xass yerlari – sultonning xususiy yerlari bo'lgan. Vali imperiyaning vakili sifatida o'z tarafdorlari bilan xass yerlari ustidan nazorat o'rnatgan edi. Vaqf yerlarining nazorati esa nozirning qo'lida edi. Nozirning ustidan bosh nozir turgan. Bosh nozir esa to'g'ridan – to'g'ri bish qoziga bo'ysingan. Ko'pchilik xususiy yerlar ko'oincha vaqf yerlari deb yozdirilib soliqlardan ozod bo'lib qolgan.

Mamlyuklarni nazorat qilish mahalliy hukmdorlar va yanicharlarga topshirildi. Ammo bu harakatlar foyda bermadi. Mamlyuk beylarining dehqon va hunarmandlarni ayovsiz qiynashlari mamlakatda noroziliklarni keltirib chiqardi. Bu norozilikka sabab dexqonlar rasman erkin shaxslar xisoblansalarda ularning huquqlari poymol qilinishidan kelib chiqqan deb aytsak bo'ladi. Buning yaqqol misoli sifatida mana bu xolatni aytib o'tsak bo'ladi, dexqon o'zi xoxlagan paytda ishlayotgan yerini tark etishi mumkin bo'lgan, lekin dexqon yerni tark etsa u kuch bilan ish joyiga olib kelinib qattiq jazollangan. Misrda Qohira Al – Azhar masjidi shayxi boshchiligida turk hukmdorlari va mamlyuk beylariga qarshi xalq xarakatlari boshlandi. 1795 yil yozida Qohirada barcha savdogarlar va hunarmandlar o'z do'konlarini yopib qo'ydilar. Mamlyuk beylari shayx bilan kelishishga majbur bo'ldilar va qiynoqlar, hamda noqonuniy soliqlardan voz kechishlarini aytdilar. 1798

³⁶ “Новая история стран зарубежной Азии и Африки” 1971г

yili ularning orasida birdamlik bo'lmagani uchun mamlyuklar "Ehromlar yonidagi jang"da Napoleon Bonapart qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchraydilar.³⁷

1800 yilga kelib Misr ahosi 2.5 mlnga yaqin edi. Bu butun Misr tarixidagi axilining eng kam ko'rsatkichi edi. Bundanko'rinib turibdiki Misrda bu davrda aholining o'sishi juda sekin bo'lgan. Misrning yagona eng katta shahri Qohira bo'lib, unda 250 ming kishi istiqomat qilgan. Qolgan aholi esa qishloqlarda va kichik shaharlarda istiqomat qilgan. Misrning janubida qisman ko'chmanchi xalqlar isteqomat qilib, ular chorvachilik bilan shug'ullanganlar.

³⁷ В.Ф. Семенов. Урта асрлар тарихи. Укитувчи нашриёти. Т. 1973 й.

Misr XIX asr boshida.

5.1. Napoleon ekspeditsiyasining Misrga kelishi

Fransiya XVIII asrda Hindiston va G'arbiy yarimshardagi koloniyalaridan mahrum bo'lgandan so'ng, u o'z mustamlakachilik siyosatini O'rtayer dengizi sharqiy sohillariga qaratdi. Uning koloniyalari Angliya qo'liga o'tib ketgan edi. O'rtayer dengizi hududlari masalasida ham Fransiyaning asosiy raqobatchisi Angliya hisoblanar edi. Fransiya hukumati Avstriya va Rossiya bilan tinchlik shartnomasini tuzganidan so'ng faqatgina Angliya bilan urushga tayyor holatda edi. Direktoriya Angliyaga qarshi urush olib borishni rejalashtirgan edi, lekin Fransiya dengiz floti kuchsizlanib qolgan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun Fransiya bir nechta rejalarni ham ishlab chiqqan edi, lekin masalani yana bir muhim tomoni shunda ediki bu davrda Angliya dengiz hukmdori edi va Fransuz harbiy dengiz flotini erkin, talofotlarsiz harakatlanishi qiyin edi. Fransiya Angliyaga qarshi flotini Irlandiyaga (bu yerda inglizlarga qarshi harakatlar qo'llab quvvatlanar edi) yoki Usmonlilar imperiyasining bir necha joylariga tushurishni rejalashtirdi. Angliya istelochilik kuch – qudratini yo'q qilish, Direktoriya hukumatini Hindistondagi inglizlar egallagan boy hududlarini olib qo'yish maqsadida ekspeditsiya tuzishga qaror qiladi. Hindistonga olib boradigan asosiy yo'llar arab mamlakatlari hududidan o'tgan edi. Shu maqsadda Misrni egallash zaruriyati tug'ildi va Misr asosiy Angliyaga qarshi harakatlar maydoniga aylandi.³⁸ Misr rasman usmonlilar sultonligi tarkibida edi, lekin bu davrga kelib ham ichki ham tashqi siyosatida mustaqil bo'lib olgan edi. Sulton hukumati esa Fransiyaning Misrga nisbatan har qanday harakatiga hayrixox ekanligini tan oldi. Napoleon boshchiligidagi qo'shinni Irlandiyaga tushirilishiga ishongan Angliya hukumati Gibraltar bo'g'ozini berkitib qo'ydi. Ekspeditsiya 1798 yilning 19 mayida maxfiy ravishda Tulon, Genuya, Ayachcho va Chivitavekke portlarini tark etib, birlashgan holda janubga tomon yo'l oldi. Napoleon Bonapart boshchiligidagi Misrga

³⁸ Народы Азии и Африки. Издательство Академии наук. М. 1962г

bo'lgan ekspeditsiya (1798 – 1801 y.) shu maqsadni harbiy kuch yordamida oshirishga bo'lgan ilk harakat edi.³⁹ Misrni qo'lga kiritish Sharq bozorlariga bo'lgan yo'lni ochib berishi kerak edi. Napalaeon davridayoq Suvaysh kanalini qazish loyihasi ishlab chiqilgan, lekin bu loyiha amalga oshmay qolgan.

Birinchi zabt etilishi kerak bo'lgan nuqta bu Malta oroli edi. Bu yerda Malta ordeni joylashtirilgan edi. Malta ordeni Jazoirlik qaroqchilarga qarshi tuzilgan bo'lib, u ham og'ir ahvolga tushib qolgan edi. U yerdagi ritserlar ham Fransiyaning dushmanlari Angliya va Rossiya bilan dostona aloqada edilar, hattoki ingliz qo'shinlar ba'zan Maltani o'z harakatlarini olib borish uchun vaqtinchalik makon qilar edilar. 1798 yilning 11 iyunida Maltada kutilmagan holatda katta fransuz floti paydo bo'ldi va ichimligi suvi g'amlab olish uchun ruxsat so'radi, lekin maltaliklar faqatgina birgina kemaga ruhsat berishdi, umumiy kemalar soni 400 ta edi. Fransuzlar bunga qarshi ultimatum e'lon qilishdi, maltaliklar urushga tayyorgarlik ko'rib yuborishdi. Fransuz floti Maltaga bir nechta desantlarni tushirdi va ular qisqa vaqt ichida orolni egalladilar. Ritserlar ularga qarshilik ko'rsata olmadilar, aksincha yollanma qo'shinga olinganlar qurollarini topshirib fransuzlar tarfiga o'tib ketdilar. Shu yerda Napoleon ikki ming kishilik qo'shinini qoldirib Misr tomon yo'l oldi.⁴⁰

Napoleonning bu harakatlaridan habardor bo'lgan ingliz razvedka hizmati, General Nelson boshchiligida eskadra yubordi. Bu vaqatga kelib Malta egallangan va fransuzlar nomalum yo'nalishda janubga tomon yo'l olgan edilar. General Nelson fransuz qo'shinlarini Misrga yo'l olganini taxmin qilib, o'zi ham Aleksandriyaga yo'l oldi, lekin u yerda fransuz qo'shinlariga duch kelmadi va ikkinchi asosiy maskan deb taxmin qilgan Istambulga yo'l oldi. U yerda ham fransuz qo'shinlariga duch kelmadi va Misrdan kelgan kema Napoleon qo'shinlari Aleksandriyani egallaganligi haqidagi habarni olmagunga qadar Dardanella bo'g'ozini berkitib qo'ydi.⁴¹

1 iyul kuni tunda Napoleon qo'shinlari Aleksandriyaga kelib tushdi va ertasi kuniyoq Aleksandriyani egalladilar. Fransuz floti admiral de Bryuesa boshchiligida

³⁹ Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

⁴⁰ Новая история Азии и Африки. Л. 1959 г

⁴¹ Гиясов Б. Хасанов. Э. Дипломатия Египта., “Шарк” 2001 г.

Aleksandriya yaqinida qoldi va u kemalarni berkitish uchun biron panaroq joy topish buyurig'ini oldi. Asosiy qo'shin esa Qohira tomon yo'l oldi. Yuqorida aytib o'tilganidek hukumat turklarga emas, balki, mamlyuklar qo'liga o'tib ketgan edi. 21 iyul kuni fransuz qo'shinlari mamluklar yo'lboshchilari Murod – bey va Ibroxim – bey bilan to'qnash keldilar, bu jang tarixda “Ehromlar yonidagi jang” nomi bilan mashhurdir. Fransuzlar urush olib borish taktikasida kuchliroq bo'lganliklari uchun va zamonaviy qurol – yaroqqa ega bo'lganliklari uchun urushda katta talofatlarsiz g'laba qozondilar. Piramidalar yonidagi jangda fransuzlar mamlyuklarni mag'lubiyatga uchratib, Qohira tomon yo'l olishadi. Mag'lubiyatga uchragan Murod – bey va Ibroxim – beylar Qohirani tark etib berkinishga majbur bo'ldilar. Harbiy kuch – qudratni yo'qotgan bo'lishlariga qaramasdan mamlyuklar mamlakatda siyosiy mavqeylarini saqlab qoladilar. Qohirqni eggalagandan so'ng Napoleon general Devu boshchiligidagi qo'shinni Yuqori Misrni eggalash uchun yubordi. O'zi esa mamlakatni egglash uchun bir necha tadbirlar olib bordi va xalqni o'zi tomon og'dira boshladi. Bu davrga kelib fransuzlar mamlakatni yarmisini egallab bo'lishadi. Bu kabi g'alabalarga qaramasdan fransuzlar Misrda ko'p vaqt qola olmaydilar.⁴²

General Nelson boshchiligidagi ingliz floti 1798 yili 1 avgustda Abukir yaqinida fransuz flotini mag'lubiyatga uchratadi va fransuzlarni yordam kuchlaridan mahrum qiladi.⁴³

Bu jang qanday bo'lib o'tganini aytib o'tadigan bo'lsak, Fransuz floti (13ta kema, 4ta fregat 10 kishi bilan, 1183 ta qurol - yaroq) Abukir ko'rfazida vitse – admiral F. Bryues boshchiligida turgan bo'lgan. 1 avgust kuni kutilmagan holda ingliz floti (14ta kemada 8 ming kishibilan, 1012ta qurol – yaroq) Abukirda paydo bo'ldi. Urish taxminan soat 19 larda boshlangan. Fransuzlarning eng kuchli 5ta kemasiga qarshi Nelson 8ta kemani qo'yadi, 4ta kema esa qirg'oq tomondon turib o't ochishadi, qolgan ikki kema esa fransuzlarning markaziga zarba beradi. Soat 21ga yaqin fransuzlarning eng kuchli kemalari va markaz batamom mag'lub etiladi. Soat

⁴² Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

⁴³ Отв. ред. Петросян Ю. А. с участием Иванов С. М. Внешнеполитические связи Османской империи в новое время (конец XVIII – начало XX вв.). 1989.

12da 2 avgust kuni kont – admiral P.Sh. Vilnyov mag'lubiyatni tan oladi. Bu jang natijasida fransuzlar 11ta kema, 2ta fregat, 6 ming kishidan ziyod qo'shından mahrum bo'ladilar. Inglizlar esa 900 kishidan mahrum bo'ladilar. Bu sonlarning o'zi shuni ko'rsatib turibdiki fransuzlar qanchalik talofat ko'rib, boshari egik holda Misrni tashlab ketishga majbur bo'lganliklarini. Buning natijasida Napoleon Bonapart va uning 30 ming kishilik qo'shini bilan aloqa uzilib qoladi.

Napoleon o'zini mamlyuklar zulmiga qarshi kurashuvchi qilib ko'rsatib, u <<Oллоhni, uning payg'ambarini va Qur'onni hurmat qilishini>> aytadi.⁴⁴ Mamlyuklardan ko'ra fransuzlar qishloq axolisini yomon ahvolga tushirib qo'yadilar. Fransuzlar mamlyuklardan ham ko'proq soliq va yig'imlar yig'ib ola boshlaydilar. 1798 yil oktabr oyida Qohirada fransuzlarga qarshi qo'zg'alon bo'lib o'tadi. Al – Azxar masjidi bu safar ham qo'zg'alon markazi hisoblanadi. Napoleon bu qo'zg'alonni qiyinchilik bilan bostiradi.⁴⁵

Turk sultoni Salim III Fransiyaga qarshi urush e'lon qiladi. 1799 yili Rossiya va Angliya bilan ittifoq tuzib Suriya orqali fransuzlarga qarshi yurish yurish qilindi.

Turklardan oldin Suriyani egallash maqsadida fransuz qo'shinlari 1799 yili erta bahorida janubiy Suriyaga bostirib kirib, Akkani egallashad, lekin ikki oylik qamaldan so'ng Misrga qaytishga majbur bo'ladilar.

Napoleonning Misrga qilgan ekspeditsiyasi faqat urushlardan iborat bo'lib qolmadi. O'sha davr fransuz olimlari Misrda bir necha tadqiqot ishlarini olib borganlar, buning yaqqol misoli sifatida fransuz olimi Fransua Shampaleon ko'sak bo'ladi. U insoniyatga xali nomalum bo'lgan Misr ierogliflarini kashf etib, o'qishga muvaffaq bo'ladi. Fransua Shampaleon kashf etgan tosh nomi hozirda “Rezet toshi” arabchasiga “حجر رشيد” deb ataladi.⁴⁶

20 mayga kelib chekinish boshlandi. Napoleon Bonapart turklarni mag'lubiyatga uchrat oladigan holatda edi, lekin napoleon tuzoqda ekanligini bilib qoldi. Napoleon Bonapart 23 avgust kuni qo'mondonlikni general Klebergga topshirib

⁴⁴ Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

⁴⁵ Ўша ерда

⁴⁶ wikipedia.org/napoleonbonapart

Fransiyaga qaytib ketadi, chunki Direktoriya o'gir ahvolga tushib qolgan va muxolifatga qarshilik qila olmay qolgan edi va 9 oktabr kuni Fransiya yaqinidagi Frejyuse portiga kelib tushadi. Fransuzlarni Misrdagi bir necha g'alabalariga qaramasdan, ularning ahvollari yomonlashib qolgan edi. Fransuzlarga qarshi xalqning nafrati oshib bordi. 1800 yil mart oyida Qohira yaqinida fransuz va turk armiyasi urush olib borayotgan paytda, poytaxt aholisi qo'zg'alon ko'tarib, fransuz qo'shinlarini bir qismini mag'lubiyatga uchratadilar. General Kleber o'ldiriladi. Bir oy ichida ittifoqchilar fransuz armiyasi bilan to'qnashib turdilar. Qishloq joylarda baddaviylar fransuzlarga qarshi partizan urushini olib bordilar.⁴⁷ 1801 yil sentabr oyida Misrni tartk etdilar, bu davrga kelib ular 27 ming nafar askarlarini yo'qotgan edilar.

1801 yilda mamlyuklar, turklar va inglizlar o'z harakatlarini kuchaytirib, fransuzlarni Misrni tashlab chiqib ketishga majbur qildilar. 1801 yilgi fransuzlar evakuatsiyasi davrida mamlyuklarning bir qismi ular bilan birga olib chiqib ketiladi, Napoleon ularni o'z otxonasiga oladi va keyinroq ulardan otliq qo'shin tuzadi. 1812 yilgi rus – fransuz urushi davrida mamlyuklar deyarli yo'q qilib yuboriladilar.⁴⁸

5.2. Muhammad Alining hukumatga kelishi

Fransuz qo'shinlarini Misrdan chiqib ketishi bilanoq – inglizlar, mamlyuklar va turklar o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqa boshladi. 1803 yili Fransiya bosimi ostida ingliz armiyasi ham olib chiqib ketildi. *Amen tinchlik shartnomasiga* ko'ra Misr turk sultoniga qaytarib berildi. Shunga qaramasdan inglizlar va fransuzlar Misrda mamlyuklardan foydalangan holda o'z mavqe'larini saqlab qolmoqchi edilar. 1802 va 1804 yillarda mamlyuk beylari va Turkiya o'rtasida taxt uchun kurash davom etdi.

⁴⁷ Петросян Ю. А. Османская империя: могущество и гибель. – М, 1990.

⁴⁸ Миллер. А. Ф. Турция: Актуальные проблемы новой и новейшей истории. – М., 1983.

Misr tarixida yangi davr turk armiyasidan ajralib chiqqan alban korpusi boshlig'i Muhammad Ali (1769 – 1849) nomi bilan bog'liq. Muhammad Ali frakiyaning Kavalla shahrida tug'ilgan. Muhammad Ali shahsiga ta'rif beradigan bo'lsak u uddaburon, mansabga intiluvchan shaxs bo'lgani ko'zga tashlanadi. Muhammad Ali aslida savodsiz odam bo'lgan, u savodini 40 yoshida chiqaradi. U alban tilidan boshqa tillarda erkin gaplasha olmagan. Lekin u davlat boshqaruvida juda ham uddaburon bo'lgan. U Misrni deyarli Mustaqil davlatga qaylantirdi va Misr kelajagi uchun bir nechta islohotlar o'tkazdi. Muhammad Ali aslida Albaniyalik tamaki savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogar bo'lgan. U keyinchalik turk armiyasi safiga kelib qo'shiladi. Alban korpusi 1803 yili Misrga Napoleon qo'shinlariga qarshi yuborilgan edi. Keyinroq Muhammad Ali Usmonlilar Sultoni tomonidan tayinlangan gubernatorlarga qarshi harakat olib bordi va uni Qohirani tark etib chiqib ketishga majbur qildi. 1804 yili mamlyuklar eski tuzumni tiklash maqsadida harakatlar boshladilar, ularga qarshi Muhammad Ali boshchiligida xalq bosh ko'tardi va mamlyuklarni sahroga haydab yubordi. U Al – Azhar masjidi shayxi bilan birga ish olib bordi. Qo'zg'olonchilar mamlyuk beyi Usmon Bardisini saroyini egallab, mamlyukalarni shahardan haydab yubordilar. Qohira shayxlari Misr poshosi etib Aleksandriya viloyati boshlig'i Xurshidni tayinlashdi, uning o'rinbosari etib Muhammad Ali tayinlandi.⁴⁹

To'rt oylik qamaldan so'ng Muhammad Ali yuqori Misrdan mamlyuklarni haydab yubordi. Xurshid ham eski tuzumda ish olib bordi; uning askarlari qohiraliklarni talashdi. 1805 yili Muhammad Ali boshchiligida Xurshidga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Xurshidni xaydab chiqargandan so'ng, qohira shayxlari Muhammad Alini posho etib tayinlaydilar, bu qarorni turk hukumati ham qo'llab - quvvatlashga majbur bo'ldilar. 1808 yili Muhammad Ali mamlyuklarni barcha yerlarini tortib oladi. 1811 yili Muhammad Ali mamlakatni absolyut hukm doriga aylanadi. U mamlakatni Usmonlilar sultonligining vassali deb hisoblar va har yili Istambulga yillik soliq yig'imlarini yuborar edi. Tez orada uning hukumati

⁴⁹ Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.

cheklanmagan hukumatga aylandi. Muhammad Ali hukmronligi 1849 yilga qadar davom etdi. Misrliklar uni zamonaviy Misr davlati asoschisi deb hisoblaydilar.⁵⁰

Muhammad Ali mamlyuklarga qarshi kurashni to'xtatmadi.

⁵⁰ Миллер, А. Ф. Турция: Актуальные проблемы новой и новейшей истории. – М., 1983.

Xulosa

Kurs ishimizda ko'rib chiqilgan Misr tarixini o'rganar ekanmiz, eng avvalo Misr bu davrga kelib ancha ayanchli ahvolga tushib qolganini ko'rishimiz mumkin. So'zimizning isboti sifatida, mamlyuklar davrida aholining soliqlar, yig'imlar va turli xil ishlarga ommaviy safarbar etilishi natijasida og'ir ahvolda qolganini ko'rishimiz mumkin. Lekin shunga qaramasdan mamlyuklar aholiga yengillik yaratish o'rniga ularga doimo zulm o'tkazar edilar. Bu holat dexqonlarni mamlyuklar tomonidan shavqatsiz eksplotatsiya qilinishida ko'rinadi. Bu ham yetmaganday dexqonlar yeb – ichishiga ham yetmaydigan bo'lib qolgan edilar. Yana bu davrda multazimlarning kuchayishi natijasida oddiy xalqning ezilishi yaqqol namoyon bo'ladi. Mana shu holatdan ezilgan xalq chet ellik bosqinchilarni ba'zi paytlarda ochiq chehra bilan ham kutib oladilar. Bu holat mamlyuklar davlat boshqaruvidan ketgandan so'ng, ya'ni Usmonlilar davrida ham davom etdi. Bu holat nafaqat Misrda balki Usmonlilar imperiyasi tarkibidagi barcha davlatlarada kuzatiladi, lekin eng og'ir yuk Misr zimmasiga tushdi. Usmonlilar imperiyasining g'aznasiga kelib tushadigan to'lovlarning $\frac{3}{2}$ qismi Misr zimmasida edi. Misrning qulay geografik joylashuvi boshqa davlatlarda ham qiziqish uyg'otdi. Misr Hindistonga olib boradigan tranzit yo'l yoqasida joylashgan bo'lib undan juda ko'plab savdo karvonlari o'tgan. Bu davrga kelib Yevropa davlatlari mustamlakachilik siyosatini boshlab yuborgan edilar. Misrni zabt etish mana shu siyosatni olib borayotgan barcha davlatlarning azaliy orzusi edi. Avval Misrni egallashga fransuzlar Napoleon Bonapart boshchiligiida urinib ko'radilar va ular aisman bo'lsada Misrni egallashga muvaffaq bo'ladilar. Misrni egallanishiga sabab yana xalqning ezilganligida deb bilsak bo'ladi, chunki fransuzlarni ular o'zlarining xaloskori sifatida qabul qiladilar, lekin ularning o'y – hayollari puch bo'lib chiqadi. Napoleon Bonapart davrida ham ular og'ir ahvolga tushib qolganliklarini ko'rishimiz mumkin. Shundan so'ng inglizlar Misrni egallashga harakat qilib ko'radilar, lekin taxtga alban ko'rpusi boshlig'i Muhammad Ali kelishi bilan bu holatlarning barchasiga nuqta qo'yilgani ko'ramiz va Misrni rasman bo'lmasada tashqi va ichki siyosatda mustaqilligi ko'zga tashlanadi.

Muhammad Ali Misrda bir necha isloxotlar o'tkazib rivojlantirib yuboradi. Lekin shunday bo'lsa ham inglizlar Misrni turli xil yo'llar bilan o'z mustamlakasiga aylantirib oladilar.

Bu davrni o'rganib shunday xulosa qilsa bo'ladiki davlatchilik paydo bo'lgan ilk o'lka Misr yirik davlatlar o'rtasida kurash maydoniga aylanib taraqqiyotdan orqadan qolib ketgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Новая история стран зарубежной Азии и Африки” 1971г
2. Қадимги дунё тарихи I – қисм 1975 й. “Ўқитувчи” нашриёти.
3. История востока I 1998г. Москва Высшая школа
4. Новая история стран Азии и Африки. (XVI – XIX вв.) в 4-х частях. – ч. 2-3 М.: Гуманитарный издательский центр Владос. 2004.
5. Петросян Ю. А. Османская империя: могущество и гибель. – М, 1990.
6. Миллер. А. Ф. Турция: Актуальные проблемы новой и новейшей истории. – М., 1983.
7. Гиясов Б. Хасанов. Э. Дипломатия Египта., “Шарк” 2001 г.
8. Отв. ред. Петросян Ю. А. с участием Иванов С. М. Внешнеполитические связи Османской империи в новое время (конец XVIII – начало XX вв.). 1989.

Internet saytlar:

www.ya.ru

www.ivran.ru

www.krugosvet.ru

www.vokrugsveta.ru

www.worldhistory.ru

www.wikipedia.org

www.yestravel.ru